

**“Hududgazta’minot” AJda 2026-yil 1-choragida Komplayens nazorat
boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida
UMUMIY HISOBOT**

I. Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilishi to‘g‘risida umumiy axborot

“Hududgazta’minot” AJ Boshqaruv raisi tomonidan 2026-yil uchun tasdiqlangan “Rejasi”ga asosan Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan, Jamiyat, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsion xatarlar mavjudligini o‘rganish, davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunlarga amal qilish, shaffoflikni ta‘minlash va korrupsion holat (*manfaatlar to‘qnashuvi, tanish-bilishchilik, qarindosh-o‘rug‘chilik, lobbizm*) larni oldini olish hamda boshqa jarayonlarni nazorat va monitoring qilish borasida o‘rnatilgan tartibda ishlar olib borildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

“Hududgazta’minot” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 14 ta me‘yoriy hujjat tasdiqlangan va qabul qilingan.

Jumladan:

1. “Hududgazta’minot” AJning Korrupsiyaga qarshi Siyosati (*“Hududgazta’minot” AJ Kuzatuv Kengashining 2021-yil 18-maydagi majlis bayoni*);
2. “Hududgazta’minot” AJning Odob-axloq qoidalari (Jamiyat Boshqaruv raisining *18.10.2022-yilgi 239-sonli buyrug‘i*);
3. “Hududgazta’minot” AJning Komplayens nazorat boshqarmasi Nizomi (*06.06.2022-yil kuni Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan*);
4. “Hududgazta’minot” AJning Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (*Jamiyat Boshqaruv raisining 13.11.2023-yilgi 216-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
5. “Hududgazta’minot”AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida xavf-xatarni baholash Uslubiyoti (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
6. “Hududgazta’minot” AJning Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom (*Jamiyat Boshqaruv raisining 17.07.2023-yilgi 139-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
7. “Hududgazta’minot” AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
8. “Hududgazta’minot” AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
9. “Hududgazta’minot” AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomasi (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
10. “Hududgazta’minot” AJda Sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilari to‘g‘risida Nizom (*Jamiyat Boshqaruv raisining 13.11.2023-yilgi 216-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);
11. “Hududgazta’minot” AJ va uning tizim korxonalarida KQK bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan*);

12. "Hududgazta'minot" AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom (*Jamiyat Boshqaruv raisining 20.01.2025-yilgi 11-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan*);
13. "Hududgazta'minot" AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan*);
14. "Hududgazta'minot" AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma (*Jamiyat Boshqaruv raisining 25.12.2024-yilgi 211-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan*).

Xususan, aksiyadorlik jamiyati ishchi-xodimlarining odob-axloqini yagona prinsiplari va qoidalarini belgilash, ularni o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatida lavozim vakolatlarini suiste'mol qilishning oldini olish maqsadida, ko'rsatib o'tilgan me'yoriy hujjatlar jamiyatning hududiy tuzilmalaridagi "Moddiy resurslardan oqilona foydalanish va korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish" (*MROF va KQSAO*) bo'limlari rahbarlariga yuborilishi bilan birga ishchi-xodimlar bilan o'tkaziladigan seminar, trening, davra suhbatlar va ochiq muloqotlar vaqtida yetkazilishi ta'minlanib kelinmoqda.

Shuningdek, Jamiyatning ishchi-xodimlari doimiy tanishib borishni ta'minlash maqsadida, jamiyatning veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha barcha me'yoriy hujjatlar doimiy ravishda foydalanish uchun joylashtirilib qo'yildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Jamiyatning nizomida belgilangan **15 ta** funktsiya bo'yicha xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida, ma'lumotlar "Ye-antikor.uz" platformasiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiya qarshi kurashish agentligi tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

Jamiyatda ish faoliyatini olib borayotgan ishchi-xodimlar orasida manfaatlar to'qnashuviga yo'l quymaslik va korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida, joriy yilning 15-yanvar kungacha qadar **14 665 nafar** ishchi-xodimlar tomonidan yillik deklaratsiya to'ldirildi. Olingan deklaratsiya tahlil qilinganda **14 ta** mavjud (*real*) va **726 ta** ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi aniqlandi.

Xozirgi kunda, Jamiyatning hududiy tuzilmalarida aniqlangan ushbu 14 ta mavjud manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha, hududiy tuzilmalarida tuzilgan maxsus "Odob-axloq komissiyasi" tomonidan AJning 2025-yil 20-yanvar kundagi 11-sonli buyrug'i 1-ilovasida "AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish NIZOMI"ning ko'rsatilgan talablariga asosan belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvini hal etish choralari ko'rilmogda.

Aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha joylarda manfaatlar to'qnashuviga yo'l quymaslik borasida suhbatlar o'tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Jamiyat shartnomalariga kiritish

Jamiyat bilan tuziladigan barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalari kiritilib kelinmoqda. Korxonada bilan xo'jalik shartnomalari tuzuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rad etish yoki e'tiroz bildirish holatlari kuzatilmadi.

Kontragentlarni tekshirish

Korxonada tuzilgan shartnomalar, o'tkazilgan tender va tanlovlarning qonuniyligi hamda ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi darajasi

Hisobot davrida Jamiyat, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari tomonidan faqat “Elektron do‘kon” va boshlang‘ich narxi pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion shaklida hamda kommunal va boshqa shu kabi xizmat bo‘yicha shartnomalar tuzilganligi sababli, kontragentlarni tekshirish ishlari amalga oshirilmadi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

2026-yilning 1-apreliga qadar “Hududgazta‘minot” AJ va hududiy gaz ta‘minoti filiallarida xodimlarni ishga olish “AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma” asosida jami **405 nafar** ishga nomzodlar o‘rganildi. Natijada nomzodlardan **343 nafar** nomzodlar ijobiy hulosaga berilib, ishga qabul qilindi. **62 nafar** nomzodni ishga qabul qilish rad etildi. Shu bilan bir qatorida, ijobiy xulosaga berilgan nomzodlarni mehnat shartnomalariga kiritilgan korrupsiyaga qarshi shartlar bilan tanishtirildi.

V. Ta‘lim va kommunikatsiya

2026-yilning 1-choragida Jamiyat rahbariyati, Komplayens nazorat boshqarmasi hamda MROF va KQSAO bo‘limlari tomonidan tizimda korrupsiya holatlari sodir etilishini oldini olish va tizim xodimlarining huquqiy ongini oshirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish maqsadida, korrupsion qilmishlarni sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan gaz ta‘minoti xodimlarining ayanchli qismati borasida tayyorlangan videofilm namoyish etib kelinmoqda.

Mazkur videofilm va boshqa materiallar asosida, **592 ta** umumiy hamda **1 534 ta** yakka tartibdagi profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari o‘tkazildi. Jami profilaktik tadbirlarda **15 687 nafar** tizim xodimlari ishtirok etdi.

MROF va KQSAO bo‘limlari tomonidan Filiallarning aloqador tuzilmalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadbirlarni Matbuot xizmati ko‘magida keng jamoatchilikka yetkazish, ochiqlikni ta‘minlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, 2026 yil 1-choragida **358 ta** materiallar, shundan **336 ta** targ‘ibot materiallari ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi, **11 ta** teleko‘rsatuv va videomateriallar tayyorlanib OAVda namoyish etildi, hamda **10 ta** radio eshittiruvlar tashkillashtirildi, **1 ta** maqola gazeta va jurnallarda chop etildi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar:

Jamiyat Boshqaruv raisining 2024-yil 25-dekabrda 211-sonli ““Hududgazta‘minot” AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish ko‘rib chiqish Reglamentiga asosan murojaatlar ko‘rib chiqilmoqda.

Joriy yilning 1-choragi davomida jami **90 ta** murojaat kelib tushgan. Shundan:

- Ishonch telefoni aloqa kanallari orqali (koll markazlar) orqali – **40 ta**;
- Prezident virtual qabulxonasi orqali – **19 ta**;
- Halq qabulxonasi orqali – **8 ta**;
- Yozma ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Jamiyatga – **23 ta**.

Kelib tushgan murojaatlar asosida quyidagilar amalga oshirildi. Xususan:

- Xizmat tekshiruvi o‘tqazildi – **8 ta**;
- Tushuntirish berildi – **70 ta**;
- Tasdig‘ini topmadi – **12 ta**.

Jamiyat va quyi tuzilmalarning rahbar va xodimlari ishtirokida “VKS” platformasi orqali yig‘ilish o‘tkazilib, murojaatlarni keltirib chiqarayotgan sabab va omillarni shahar, tuman va MFYlar kesimida tahlil qilish, kelib chiqish sabablarini o‘rganish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy xolatlarni oldini olish hamda xodimlarning so‘zlashish odobi

va muomala madaniyatiga etibor qaratilib tizimli muammolarga yechim topish bo'yicha ishlar samarali amalga oshirilib kelindi.

VII. Monitoring va nazorat

Markaziy boshqaruv apparati, tarkibiy va hududiy tuzilmalarida hisobot davrida korxonada mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarini bajarilishi va AJda korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishi haqida o'tkaziladigan treninglar, davra suhbatlari va umumprofilaktik tadbirlar davomida ishchi-xodimlar orasida og'zaki so'rovlar o'tkazilishida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlarga ijobiy fikrda ekanliklarini ma'lum qilishgan.

AJda korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ichki tartib qoidalar, shuningdek korxonada qabul qilingan tartib tamoyillarni monitoring va nazorat qilish bo'yicha olib borildi.

Korrupsiyaga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan **taxlily faoliyat davomida**, ko'rilayotgan hisobot davrida gaz ta'minoti idoralari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiya, o'g'rilik, talon-tarojlik xolatlari va boshqa o'rganuv/tekshiruv/monitoring tadbirlari natijalari tahlili amalga oshirildi.

Taxlil natijalari asosida viloyat gaz ta'minoti filiallari va tuman (shaxar) gaz ta'minoti bo'limlarida **korrupsiya holatlarni keltirib chiqarayotgan sabablar va shart-sharoitlar aniqlandi**. Korrupsiyaga imkon berayotgan sabablar Jamiyat tizimining har bir yo'nalishida qanday ko'rinishga ega ekani aniq ko'rsatib berildi.

Mazkur tahlil natijalari Jamiyatning barcha Boshqarmalari, bo'limlari va viloyat gaz ta'minoti filiallari rahbarlariga junatildi xamda Boshqaruv raisi tomonidan imzolangan hujjat bilan korrupsiyaga imkon berayotgan, tahlil asosida aniqlangan sabablar va salbiy shart-sharoitlarni bartaraf etishlik yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, manzilli dasturga kiritilgan rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish bo'yicha tanlov va tenderlarda ishtirok etgan hamda Jamiyat korxonalari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan kontragentlarni o'rganish orqali havf darajasi pasaytirilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Hisobot choragi boshida, ya'ni yanvar-fevral-mart oylarida barcha viloyatlarga xizmat safarlari tashkil qilinib, Komplayens tuzilmalarining 2026-yil 1-chorakdagi mehnat faoliyati tahlil qilindi.

Hisobot davridagi tadbirlar "Hududgazta'minot" AJ va uning quyi tizim tashkilotlarida huquqbuzarlik holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, xodimlar ongida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va bartaraf etish, nepotizmning oldini olishga qaratildi.

Komplayens nazorat boshqarmasi hamda MROF va KQSAO bo'limlari tomonidan hisobot davrida **70 ta** holatda gaz ta'minoti bo'limlari xodimlari tomonidan **korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishi oldi olindi**. Mazkur xolatlarning **35 tasi** tabiiy gaz ta'minoti yo'nalishida, **30 tasi** suyultirilgan gaz ta'minoti yo'nalishida va **5 tasi** TMBlari talon-taroj qilinishi yo'nalishida oldini olishga erishilgan.

"Hududgazta'minot" AJdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish maqsadida, Komplayens nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan tizim xodimlarining faoliyatlari bo'yicha **8 140 ta** rejanidan tashqari to'satdan tekshirishlar o'tkazilgan.

Mazkur tadbirlar natijasida, **1 920 ta** tabiiy gaz ta'minoti yo'nalishida, **163 ta** suyultirilgan gaz ta'minoti yo'nalishida huquqbuzarliklar aniqlangan. Natijalari yuzasidan, **109 ta** materiallar huquq-tartibot organlariga yuborilgan, **17 nafar** mas'ul xodimlar bilan "mehnat shartnomasi" bekor qilingan, **42 nafar** xodimga nisbatan intizomiy choralar ko'rilgan.

Tabiiy va suyultirilgan gaz ta'minotida aniqlangan huquqbuzarliklar va ichki me'yoriy hujjatlar talablarini buzilishi holatlari yuzasidan o'tkazilgan **139 ta** xizmat tekshiruvlari natijalariga ko'ra, **109 ta** xizmat tekshiruviga aloqador hujjatlar jinoyat alomatlari mavjudligi sababli huquqiy baho berish uchun huquq-tartibot organlariga taqdim etildi.

Xizmat tekshiruvlari natijalari bo'yicha jami **59 nafar** xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rilgan, shundan:

- **30 nafari** bilan "mehnat shartnoma"si bekor qilingan;
- **20 nafari**ga "xayfsan" intizomiy chorasi ko'rilgan;
- **9 nafari** oylik ish haqi hisobidan jarimaga tortilgan.

Tovar-moddiy boyliklar va yoqilg'i-moylash mahsulotlaridan **5 ta** holatda **204,6 mln. so'mlik** TMB talon taroj qilinganligi aniqlanib, materiallar huquq-tartibot organlariga huquqiy baho berilishi uchun yuborilgan.

Tabiiy gaz tarmog'iga noqonuniy ulanishlar va qoidabuzarlik asosida tabiiy gaz iste'mol qilayotgan iste'molchilarni aniqlashga qaratilgan tadbirlar natijasida, Komplayens tuzilmalarning tashabbusi va ishtiroki asosida **1 920 ta** holatda qiymati **186,9 mlrd so'm** bo'lgan **61,2 mln. kubmetr** tabiiy gaz qonunga xilof ravishda sarf qilinganligi aniqlanib, hujjatlashtirilgan va zararni undirish uchun materiallar huquq-tartibot organlariga yuborilgan.

Suyultirilgan gaz ta'minoti sohasida o'tkazilgan rejadan tashqari tekshiruv va monitoring tadbirlari natijasida **163 ta** qoidabuzarliklar (*noqonuniy "Bunker"lar – 84 ta, Aholiga yetkazib berilayotgan suyultirilgan gazni orttirilgan narxlarda sotish holatlari – 1 ta, Aholi iste'molchilariga yetkazib berilayotgan maishiy gaz ballonlarga suyultirilgan gazni kam quyish holatlari – 28 ta va h.k.*) aniqlangan.

Yo'nalishdagi tadbirlar natijalarida, **84 ta** noqonuniy "Bunker"lar faoliyatiga chek qo'yildi va ular orqali **2 119 dona** maishiy gaz ballonlar va **17,5 tonna** suyultirilgan gaz noqonuniy sotilishi oldi olingan. Shuningdek, **71,6 tonna** suyultirilgan gaz talon-taroj qilingani aniqlanib, zararni undirish maqsadida, materiallar huquq-tartibot organlariga yuborilgan.

Mazkur tadbirlar natijalarida, tabiiy gaz resurslari talon-taroj qilinishi oldi olinmoqda, Gaz to'ldirish inshootlarida texnika, sanoat va yong'in xavfsizligi yo'nalishidagi kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Inshootlarda kunlik SUG kirim-chiqimi va qoldig'ini nazoratga olish, og'ir qoldiq to'liq to'kilishi va maishiy gaz ballonlarga SUG belgilangan me'yorda (20 kg) to'ldirilishini ta'minlash orqali, o'g'rilik va talon-tarojliklar oldi olinishiga erishilmoqda.

2026-yil 1-aprel holatiga "Hududgazta'minot" AJning quyi tizim korxonalarida jami **13 ta** holatda **16 nafar** xodimlar huquq-tartibot organlari tomonidan jinoyat ustida qo'lga olingan.

IX. Xulosalar

Ta'kidlash lozimki, sodir etilayotgan korrupsion qoidabuzarliklarning aksariyati (**80-85 %**) **firibgarlik orqali** (*xodimlarning bevosita xizmat majburiyatlariga kirmaydigan ishlarni bajarib berish evaziga*) sodir etilmoqda.

Jinoyat ustida qo'lga olingan xodimlarning 90 foizini "ta'minotchi-iste'molchi" tabaqasida **inson omili** yuqori bo'lgan yo'nalishlar, ya'ni "Mahalla iste'molchilari bilan ishlash" boshqarma xodimlari tashkil etmoqda.

Shu sababli, hozirgi kunda korrupsiyaga imkon berayotgan mazkur salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida:

- "Inson omili" yuqori bo'lgan yo'nalish "Mahalla iste'molchilariga tabiiy gaz yetkazib berish" boshqarmasi xodimlarini bodi-kameralar bilan ta'minlash choralari ko'rish;

- 2026-yil 2-choragi davomida huquqbuzarliklar kesimida eng ko'p korrupsiya holatini kamaytirish uchun gaz iste'molchilarining huquqiy ongini oshirish, buning uchun Matbuot xizmati yordamida gazlashtirish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq video targ'ibot materiallarini tayyorlash va OAVlarida doimiy yoritib borish;

- "Mahalla iste'molchilari bilan ishlash boshqarmasi" yo'nalishidagi aniqlanayotgan noqonuniy va qoidabuzarlik holatlarini hamda qoidabuzarliksiz xatlov tadbirlarini ham onlayn rasmiylashtirish tizimini 2026-yilda to'liq yo'lga qo'yish orqali "ta'minotchi - iste'molchi" zanjirida "inson omili"ni yanada minimallashtirish choralarini ko'rish;

- "Texnik shart"lar berilishi sohasida korrupsiya xatarlarni kamaytirish va inson omilini keskin qisqartirish maqsadida, "Arc Gis" dasturiy ta'minotini to'liq shakllantirib, "Hududgaz korporativ" dasturiga integratsiya qilish;

- Aniqlangan korrupsiya holatlari yuzasidan o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvlarida asosiy e'tiborni korrupsiyani kelib chiqishiga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlashga qaratish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib borish;

- Manfaatlar to'qanashuvini o'z vaqtida oldini olish maqsadida, barcha xodimlar tomonidan deklaratsiyalar to'ldirilishini ta'minlash, to'ldirilgan deklaratsiyalarni tahlil etib, aniqlangan holatlarni o'z vaqtida bartaraf etish;

- Xodimlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari samarasini oshirish, buning uchun korrupsiyaga qo'l urgan xodimlarning qismati yuzasidan tayyorlangan **videofilmlarni** namoyish etib borish;

- Soha xodimlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi huquqiy ongini oshirish va korrupsiyaga qarshi immunitetini hosil qilish maqsadida, huquq-tartibot organlari va boshqa mutaxassis, ekspertlarni jalb qilgan holda davra suhbatlari, seminar va o'quv tadbirlarini tizimli tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasiga Takliflar:

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish uchun 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ikkinchi yo'nalish bo'yicha belgilangan "Mamlakatda adolat va qonun ustivorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" ishlarini har bir korxonada, idora va tashkilotlarda amalga oshirilishini ta'minlash.

AJ bilan shartnoma munosabatga kirishayotgan yuridik va jismoniy shaxslarni davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunlarga amal qilinishini, shaffoflikni ta'minlash va korrupsion holat (manfaatlar to'qnashuvi, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, lobbizm)larni oldini olish, xayriya va homiylik mablag'larini to'g'ri ajratilishini ta'minlash maqsadida, internet ijtimoiy tarmog'ida birgina STIR raqami orqali ochiq portaldan tekshiriladigan yuridik va jismoniy shaxslarga oid barcha ma'lumotlarni olish imkoni bo'lgan portal yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Tadbirlar rejasini:

AJ Komplayens nazorat boshqarmasining 2026-yil Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlari bo'yicha Rejasida belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlash.

"Hududgazta'minot" AJning 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Komplayens nazorat boshqarmasi